



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

DUNYO MIQYOSIDA O‘ZBEK HUNARMANDCHILIGINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Xudaybergenov Hayitboy Satimovich Urganch davlat tibbiyot instituti, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, (PhD).

Annatotsiya.

Ushbu maqola an‘anaviy o‘zbek hunarmandchiligining bugungi kundagi holati, tarmoqlarning rivojlanish xususiyatlari, ajdodlardan saqlanib kelayotgan noyob hunar turlarining dunyo hamjamiyatida o‘rganilish tendensiyalariga bag‘ishlanadi. Shuningdek, hunarmandchilik turlari insoniyatning noyob madaniy bilimi sifatida tan olingan va uning saqlanishi avlodlar orasidagi bilimlar uzluksizligini ta‘minlashga bog‘liqligi ta‘kidlangan.

Аннотация.

Данная статья посвящена изучению современного состояния традиционного узбекского ремесленного искусства, особенностям развития его отраслей, а также тенденциям изучения уникальных видов ремёсел, сохранившихся от предков, в мировом сообществе. Кроме того, подчёркивается, что ремёсла признаны уникальным культурным знанием человечества, а их сохранение напрямую связано с обеспечением преемственности знаний между поколениями.

Annotation.

This article is devoted to the study of the current state of traditional Uzbek craftsmanship, the specific features of the development of its branches, and the global trends in researching unique types of crafts preserved from ancestors. It is also emphasized that crafts are recognized as a unique form of human cultural knowledge, and their preservation is directly linked to ensuring the continuity of knowledge between generations.

Калит сўзлар: Etnologiya, hunarmandchilik, madaniy, gender masalasi, meros, turizm, an‘ana.

Ключевые слова: Этнология, ремесленное искусство, культура, гендерный вопрос, наследие, туризм, традиция.

Keywords: Ethnology, craftsmanship, culture, gender issues, heritage, tourism, tradition.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida xalq hunarmandchiligi, uning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bu jarayon YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tashabbuslari, madaniy merosni himoya qilish konvensiyalari va global madaniyatlararo muloqot siyosati bilan bog‘liq. YUNESKOning 2003 yilda qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi"da [1] hunarmandchilik turlari insoniyatning noyob madaniy bilimi sifatida tan olingan va uning saqlanishi avlodlar orasidagi bilimlar uzluksizligini ta‘minlashga bog‘liqligi ta‘kidlangan:

Dunyo etnologiyasi va antropologiyasida hunarmandchilik faqat bir amaliy faoliyat emas, balki millatlar madaniyati, urf-odatlar, hayot tarzi va dunyoqarashining ajralmas tarkibiy qismi sifatida o‘rganilmoqda. Masalan, Richard Sennet o‘zining mashhur “The Craftsman” asarida [2] hunarmandlikni inson mehnati, shaxsiy kamolot va madaniy o‘zlik bilan bog‘laydi:

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga qaytish jarayonida hunarmandchilik faoliyati qayta tiklandi, davlat tomonidan rag‘batlantirildi. Xususan, so‘nggi yillarda madaniy merosni chuqur o‘rganish, saqlash va jahonga tanitishda «O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an‘analarini to‘liq saqlab qolish, ko‘paytirish, milliy hunarmandchilikning to‘qimachilik-gilamdo‘zlik san‘atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida yoshlar, ayollar va kam ta‘minlangan oilalar bandligini ta‘minlash»[3] kabi qator vazifalar belgilab berilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasini mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

“Hunarmand” uyushmasi tomonidan hunarmandchilikning to‘qimachilik turi bo‘yicha xalqaro festivallar va ko‘rgazmalar Xorazm hunarmandlarining faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Glenn Adamson esa hunarmandchilikni nafaqat tarixiy, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida ham ko‘radi, shuningdek hozirgi zamonda hunarmandchilikning faqatgina madaniy emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati borligini ta‘kidlaydi. Bu fikr Glenn Adamsonning 2021 yilda chop etilgan “Craft: An American History” nomli asarida ilgari surilgan [4] Adamson ushbu asarida hunarmandchilikni nafaqat an‘anaviy ko‘nikma va san‘at sifatida, balki jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy va guruh identifikatsiyasi, shuningdek, madaniy merosning uzviyligini ta‘minlovchi kuchli vosita sifatida baholaydi. U Amerika tarixi misolida hunarmandlarning ijtimoiy va siyosiy jarayonlardagi o‘rni tahlil qiladi, bu tendensiya butun dunyo uchun ham universal hisoblanadi. Buning ahamiyati esa shundan iborat-ki, Xorazmdagi hunarmandchilikni o‘rganish nafaqat madaniy merosni hujjatlash, balki jamiyatni barqaror rivojlantirish, turizmni rivojlantirish, shaxsiy va milliy o‘zlikni saqlash bilan bog‘liq ekanini ilmiy jihatdan asoslashda yordam beradi.

Shuningdek, jahondagi ko‘plab mamlakatlarda (Italiya, Hindiston, Yaponiya, Turkiya va boshqalar) hunarmandchilik turizm, mahalliy iqtisodiyot, gender masalalari va ta‘lim tizimi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Bu jarayonda hunarmandchilik obyektlari nafaqat estetik qadriyat sifatida, balki ijtimoiy kapital, madaniy identifikatsiya va tarixiy xotira bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ham hunarmandchilikning qayta rivojlanishi va uning turizm, eksport va madaniy brendlashtirish bilan bog‘liq jarayonlari jahon olimlari diqqat markaziga tushmoqda. Masalan, Z. Levin va G. Snegarev tomonidan tayyorlangan "Craft Revival in Central Asia" [5] nomli tadqiqotda shunday deyiladi: Markaziy Osiyodagi, jumladan O‘zbekistondagi an‘anaviy hunarmandchilik madaniy merosni asrash va iqtisodiy yangilanish (innovatsiya) nuqtasida joylashganini anglatadi. YA’ni bu ikki jarayon — madaniy qadriyatlarni saqlab qolish va zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish — hunarmandchilik orqali o‘zaro bog‘langan. Bu fikr shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyoda hunarmandchilik endi faqat an‘ana va madaniyatni saqlab qolishga xizmat qilmaydi, balki Mahalliy ishlab chiqarish va bozor mexanizmlariga moslashmoqda.

Jumladan;

Turizm va eksport salohiyatini kuchaytirmoqda

Ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratmoqda

Hunarmandlarning shaxsiy brendlarni shakllantirish, raqamlashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini bermoqda

Bu — hunarmandchilikni himoya qilish va rivojlantirishni bir vaqtda amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan, Xorazm viloyatida ham ushbu ikki tendensiya (an‘anani saqlash va iqtisodiy faollashuv) bir vaqtda kuzatiladi, bu esa mazkur ilmiy tadqiqotni zamonaviy jahon ilmiy tendensiyalariga mos holda tadqiq qilishni talab etadi.

Shunday ekan, Xorazm hunarmandchiligining o‘ziga xos tarixi, an‘anaviy bilimlari, turlari va ijtimoiy vazifalarini chuqur o‘rganish nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy doira uchun ham dolzarbdir. Ushbu mavzudagi tadqiqotlar xalqaro ilmiy muhitdagi umumiy tendensiyalar – madaniy merosni himoya qilish, an‘anaviy bilimlarni hujjatlash, insoniyatning noyob tajribalarini saqlash kabi dolzarb masalalarga javob beradi.

Yuqoridagi manbalarga tayanib shuni aytshimiz mumkin-ki, Markaziy Osiyo xalqlarining jumladan ўzbek hunarmandchilik an‘analari bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarda alohida ўzbek hunarmandchiligi tarixini to‘liq yoritgan ishlar nisbatan kam uchraydi. Ammo yetakchi etnograf va madaniyatshunos olimlarning umumiy Markaziy Osiyo madaniyati haqidagi ishlarida Xorazm hunarmandchiligiga daxldor ma‘lumotlar alohida tahlil talab qiladi. Jumladan, E. Alvort (Edward Allworth) o‘zining “The Modern Uzbeks” nomli fundamental tadqiqotida o‘zbek xalqining madaniy va etnik o‘zgarishlarini tarixiy jarayon kontekstida tahlil qilar ekan, Xorazm hunarmandchiligining XX asr davomida qanday shakllangani, ayniqsa sovet modernizatsiyasi



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

sharoitida qanday transformatsiyaga uchraganini ko‘rsatib o‘tadi. U hunarmandchilikni milliy madaniyatning ifodasi sifatida baholab, uning tarkibidagi to‘qimachilik, zargarlik, kulolchilik kabi an‘anaviy turlari qanday rivojlanganini alohida ta’kidlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Traditional craftsmanship is perhaps the most tangible manifestation of intangible cultural heritage... Its survival is closely linked to the transmission of knowledge and skills from one generation to the next” (UNESCO, 2003)

2. “Craftsmanship — the skill of making things well — stands as a counterbalance to mechanical efficiency and alienated labor” (Sennett, 2008, p. 20)

3. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 17 noyabrda PF-5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi. 2017 yil, 9 fevral.

4 “Craft is not only a cultural expression but also a powerful economic and political force — sustaining communities, transmitting heritage, and enabling identity” (Adamson, 2021, p. 11)

5. Zsuzsa Levin & Gennady “Snesarev Craft Revival in Central Asia: Cultural Heritage in Transition” CHCAP (International Information and Networking Centre for Intangible Cultural Heritage in the Asia-Pacific Region under the auspices of UNESCO) 2014, p. 57

